

**MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK”  
ASARIDA KELTIRILGAN AYRIM OMONIM SO‘ZLAR IZOHI**

**Toshtemirova Dinoza Erkin qizi**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi*

**O.Anorqulova**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
filologiya fakulteti dotsenti*

**Annotatsiya:** O‘zbek tili o‘zining qadimiy o‘tmishiga ega. Bundan xabar beruvchi o‘ziga xos manbalar yetarlicha. Til taraqqiyotining ilk ilmiy manbalaridan biri bo‘lgan “Turkiy so‘zlar devoni” bu jihatdan ahamiyat kasb etadi. Asar matnini bugungi kunda turli sohalar, xususan, tilshunoslik yo‘nalishlariga oid birliklar talaygina. Ushbu maqolada asar matnida uchraydigan ayrim omonim so‘zlar va ularning izohiga to‘xtalamiz.

**Kalit so‘zi:** Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘atit turk”, omonim, tahlil.

Turkiy xalqlar tarixida qomusiy manba sifatida e’tirof etiladigan, ko‘plab sohalarda murojaat qilinadigan boy va salmoqli asar Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yozilgan bo‘lib, 10 asrlik tarixni o‘zida aks ettiradi. Uning “Devoni lug‘otit turk” asari XI asrda Qoraxoniylar davlati hukmronlik qilgan vaqtлari yozilganligi ko‘plab manbalarda aks ettirilgan. Bu devon turkiy xalqlar va qabilalarning umumiyl til xususiyatlari mavjud bo‘lgan asar hisoblanadi. Unda qabilalarning til xususiyatlarini, ularning rivojlanishi, geografik hududi, urf-odatlari, turmush tarzi ham o‘rganilgan. “Devoni lug‘otit turk” asarini S.Mutallibov tomonidan nashr ettirilgan o‘zbek tilidagi tarjima varianti nusxasida shunday fikrlar mavjud: “*Mahmud Koshg‘ariy so‘zlarining har xil ma’no attenkalarini izohlash bilan chegaralanib qolmay, turli qabila tillari o‘rtasida bo‘lgan xarakterli fonetik va morfologik farqlarni ham ko‘rsatib bergen*”<sup>1</sup>. Bu jihatdan devon faqat izohli lug‘atgina bo‘lib qolmay XI asr tilining fonetikasi, shuningdek, grammatikasi hamdir. Bundan tashqari, so‘zlarning kelib chiqishi, qanday ma’noni izohlashi, omonim, paronim, sinonim so‘zlar izohi ham yozib o‘tilgan. Bir so‘zning asosi boshqa bir so‘zning kelib chiqishiga imkon yaratadi. Masalan: “Devoni lug‘otit turk” asarida “jana” qaytib kelgan ma’noni ifodalagan va uning “jema” variant ham uchragan.

Devonda arab tilida yozilgan turkiy so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida arab harflaridan foydalilanigan. Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘otit turk” asarini

<sup>1</sup> Devoni lug‘atit turk. 1-jild 7-13-15-185-bet

yozish bilan birga areal tilshunoslikka ham munosib hissa qo’shgan ya’ni geografik xaritani taqdim etgan. Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog‘, cho‘l, dengiz va shu kabilarning nomlari yozilgan. Ko‘plab fan sohalarini o‘z ichiga olgan bu asar 10 asr bo‘libdiki, hali hamon o‘zbek tilshunoslida, balki, boshqa turkiy tillar lingvistikasida ham ishonchli manba sifatida qo’llanilib kelmoqda. Tilshunoslida o‘rganiladigan yo‘nalishlar ko‘p, uning har bir bo‘limi o‘ziga xos bo‘lib, istalgancha ilmiy yangiliklarni amalga oshirish mumkin. Omonimlar masalasi shular jumlasidandir. Bugungi kunda konsept atamasi atrofida bir qancha tushunchalar jamlanadi, aynan omonimlar ham konseptuallashtirishning asosiy vositasi sanaladi.<sup>2</sup>

Ushbu maqolada “Devoni lug‘otit turk” asarida keltirilgan bir qancha omonim so‘zlarning lingvistik tahliliga to‘xtalamiz. H.Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida: “*Omonimlar shakli bir xil, ma’nolari har xil (o’zaro bog’lanmagan) leksemalardir. Omonimlarning ko‘pchiligi bir so‘z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo‘ladi. Masalan: ot – ism, ot – hayvon, ot – fe’l kabi. Bu tipdagi omonimlar turli so‘z turkumlariga mansub bo‘lishi ham mumkin. Bunday paytda omonimik munosabatga kirishayotgan so‘zlar shakllanish tizimiga ega bo‘lmashklari kerak. Masalan: tabiiy (sifat) va tabiiy (modal so‘z)*”, - deb ma’lumot beriladi. Shu kitobda omonim so‘zlarning yuzaga kelish sabablarini beshta qoida orqali tushuntirib beriladi:

1. Tilda azaldan mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlarning shakllari tasodifan teng bo‘lib qoladi: baqa (qurbaqa) va baqa (suv tegirmonining parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruchi metall qism.) “Devoni lug‘atit turk” asarida esa: jig‘ach – daraxt, jig‘ach – bir farsax (o‘n ikki ming qadam uzunlikdagi yer) deb berilgan.

2. Bir ma’noli so‘z leksik ma’noning ko‘chishi oqibatida ko‘p ma’noli so‘zga aylanadi, bir so‘z negizida ikkita bosha-boshqa so‘z paydo bo‘ladi: kun (quyosh)- kun (sutka, kun chiqandan yana kun chiqqangacha bo‘lgan vaqt) kabi). Xuddi mana shu qoidaga asosan, tahlil obyektimiz sanalgan asarda yana bir qancha misolarni keltirish mumkin: jalig‘ (ot yoli), jalig‘ (toj). Keltirilgan so‘zlar orqali omonim so‘zlarning ko‘zga ko‘rinmas ma’nolarini anglash mumkin. Asar tarkibida bunday so‘zlar ko‘p berilganki, undan turkiy tilning lug‘at boyligi rang-barang ekanligini sezish mushkul emas. Asar matnida qo’llanilgan shakldosh so‘zlarni izohlashda davom etamiz: **juzug‘ birovning gunohiga toyilish, kasriga qolish** ma’nosida kelsa, yana bir shaklida **juzug‘ bolalarga aytildigan so‘kish so‘zi** (*qo‘pollik tarzda*) ma’nosida keladi.

<sup>2</sup> Ozoda Nizomjon Kizi Anorqulova. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. [https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02\\_07-06](https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02_07-06)

3. . Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ayrim leksemalar o‘zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo‘lib qoldi: toy (o‘zb: otning ikki yashardan kichik bolasi)- toy ( fr: katta to‘p qilib taxlab yoki bosib bog‘langan mol va shu tarzdagi mol o‘lchovi).

4. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo‘lgan so‘zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi. Rasm (ar: surat)- rasm (ar: urf-odat).

5. Leksemalar yasalishi ham ba’zan omonimlarni keltirib chiqaradi: qo‘noq (tariq)- qo‘noq (qo‘n+oq: mehmon) kabi.

Shuningdek, asar matnida bir qancha omonim so‘zlarni uchratish mumkin:

So‘z	Ma’nosi	izoh
<b>Jag‘iz</b>	Qizil bilan qora o‘rtasidagi rang	Jag‘iz jer (yerningrangi ma’nosida)
	chaqqon	Jag‘iz at (chaqqon, baquvvat ot)
<b>jarmash</b>	Shirach, kraxmal	Oziq-ovqat maxsuloti
	Yorma	Jarmash un (maydalangan un)
<b>jap</b>	doira	Musiqa asbobi
	yapog‘ –	Tugilib, o‘ralashib qolgan yung
<b>jip</b>	ip	Tikish-bichishda foydalaniladigan narsa-buyum
	arqon	molni o‘tlatish uchun ularni bog‘lab qo‘yadigan uzun arqon
<b>jolaq</b>	Yo‘l	yurishga yaroqsiz kichik yo‘l ma’nosida qo‘llanilgan.
	yo‘l-yo‘l	bu so‘zni yo‘l-yo‘l shaklga ega har qanday so‘zga nisbatan ishlatsa bo‘ladi. Asarda jolaq barchin so‘zi keltirilgan va bu so‘z yo‘l-yo‘l beqasam, shohi ma’nosini anglatishi keltirilgan

Bunday so‘zlarni uzoq davom ettirish mumkin. Xarakterlisi shundaki, qadimgi turkiy tilning uloqot nutqida foydalanilgan aksariyat so‘zlar bugungi kunga qadar ham o‘z ma’nosini saqlab qolgan. Hozirda ularning shakily formalarida o‘zgarishlar bo‘lgan bo‘lsa-da, tafakkur qilinsa, anglatadigan mazmunni tushunib olish mumkin emas.

Hozirgi zamon lingvistik qo‘llanmalarida ko‘proq nutqda foydalaniladigan shakldosh so‘zlar haqida axborot beradi. Lekin bu so‘zlar haqidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarda ham topilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu ma’lumotlar milodiy yilning

boshlaridagi buyuk adiblar tomonidan ham qayd etilgan va o‘rganilgan. Asrlar o‘tibdiki, hozirgi kungacha saqlanib qolgan bu yozma yodgorliklar ilmiy sohada foydalanishda va yoshlarga ko‘proq bilim berishda asqatmoqda. Omonim so‘zlarga doir o‘rganilmagan va o‘rganishda bo‘lgan masalalar ham ko‘p, ularni tadqiq etish tilshunoslar zimmasidagi vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan “Devoni lug‘atit turk” asarining ham o‘rganilmagan o‘rinlari ko‘pligiga guvoh bo‘ldik. Asarda qo‘llanilgan omonim so‘zlarni ko‘rib chiqar ekanmmiz, bu kichik tadqiqotimiz orqali ilm ummonida bir tomchi bo‘lishga intilamiz. Qolaversa, keying maqolalarimizda asarning boshqa xususiyatlariha ham to‘xtalishni maqsad qilganmiz.

**Foydalanimagan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2002).
2. Abdulaxat Qahhorov,“Devoni lug‘otit turk haqida”.Toshkent: “Sharq yulduzi”, 2010-yil,1-son,342-b
3. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni. Devoni lug‘otit turk. Uch tomlik. I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. – T.: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1960, 500 b.
4. Ozoda Nizomjon Kizi Anorqulova. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. [https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02\\_07-06](https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02_07-06)
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. – 678 b.